

## **"KITOB OLAMIGA OCHILGAN ESHIK: ZAMONAVIY KUTUBXONALAR VA KELAJAK AVLODI"**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17148906>

**Dostonbek Olloquliyev**

*Xonqa tumani Axborot kutubxona markazi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari  
va raqamlashtirish xizmati xizmat rahbari*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada kutubxonalar va kitobxonlik madaniyatining yoshlar ongida shakllanishi, ularning zamonaviy jamiyatdagi o'rni hamda axborot texnologiyalari davrida o'zgarayotgan funksiyasi haqida so'z yuritiladi. Ilmiy yondashuv asosida, kitobxonlikni targ'ib qilishda kutubxonalarning roli, zamonaviy o'quvchilarning qiziqishlari, va kutubxona xizmatlarini raqamlashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot usuli sifatida kuzatuv, suhbat va statistik ma'lumotlarga tayanildi. Natijada, yoshlar orasida kitobga bo'lgan qiziqishni oshirishda interaktiv yondashuvlar samarali ekani aniqlangan. Xulosa sifatida esa, kutubxonalarni faqat kitob saqlanadigan joy sifatida emas, balki ma'naviy va ijtimoiy markaz sifatida rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi.

### **Kalit so'zlar**

kutubxona, kitobxonlik, raqamli texnologiyalar, yoshlar, madaniyat, targ'ibot

### **Kirish qismi:**

"Kitob – insoniyat tafakkurining eng buyuk kashfiyotidir" – degan edi mashhur faylasuf Francis Bacon. Bugungi raqamli asrda insoniyat bilimga boy manba bo'lmish kitoblardan ko'proq foydalanishga intilmoqda. Ammo, ayni vaqtida, tezkor axborot oqimi va ko'ngilochar kontent tufayli yoshlar orasida an'anaviy kitobxonlikka bo'lgan e'tibor kamayib bormoqda. Shu bois, kutubxonalar va ularning yangi avlod uchun dolzarb funksiyalarini qayta ko'rib chiqish zarurati tug'ilmoqda. Ushbu maqolada aynan shu muammo yoritilib, kitobxonlikni qanday qilib zamon bilan hamohang targ'ib etish mumkinligi masalasi ko'tariladi. Maqola asosan kutubxonachilar, ta'lim sohasidagi mutaxassislar, ota-onalar va yosh avlod vakillari uchun mo'ljallangan.

### **Asosiy qism:**

Birinchi navbatda, kutubxonaning tarixiy funksiyasi haqida to'xtalib o'tamiz. Ilgari kutubxonalar faqat ilmiy izlanishlar olib boriladigan va kitob saqlanadigan

joy sifatida qaralgan bo'lsa, hozirda ular madaniyat, innovatsiya va ijodiy fikr almashinuvi markaziga aylanmoqda.

Tarixdan ma'lumki, insoniyat taraqqiyoti ko'p jihatdan kutubxonalarining mavjudligiga bog'liq bo'lgan. Qadimgi Misrda papiruslar, Bobil va Assuriya kutubxonalarida gil yozuvlar, Iskandariya kutubxonasida minglab kitoblar saqlangan. O'rta asrlarda esa musulmon olamida kutubxonalar ilm-fan rivojining tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qilgan. Hozirgi kunda esa kutubxonalar raqamlı transformatsiyaga yuz tutmoqda.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy shunday degan edi: "Ilm olishga intilmoq har bir kishining vazifasidir. Ammo bu yo'lda eng sadoqatli do'st - kitobdir." Bugungi globallashuv, raqamlı taraqqiyot, ijtimoiy tarmoqlar asrida kitobxonlik masalasi jamiyatda dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, yosh avlodning vaqtini ko'proq virtual olamda o'tkazishi natijasida, ular orasida an'anaviy o'qish madaniyati sustlashgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilayotgan "Yoshlar - kelajagimiz" tamoyili doirasida yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, bilim olishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishda kutubxonalar muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Zero, kutubxona - bu faqatgina kitoblar to'plami emas, balki tafakkur, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat manbai, jamiyat taraqqiyotining o'lchovi hisoblanadi.

Oddiy misol Vatanimiz, O'zbekistonning bir qancha hududlaridagi tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamlı kutubxonalar, bolalar burchaklari va mobil kutubxonalar joriy etilgan joylarda kitobxonlik darajasi sezilarli oshgan.

Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan "Kutubxona.uz" loyihasi orqali mobil ilovada 20 mingdan ortiq elektron asarga bepul kirish imkonini yaratildi. Qashqadaryo viloyatida esa "Mobil kutubxona" loyihasi asosida qishloqlardagi bolalar har oyda bepul kitoblar olmoqda. Bu kabi tajribalar butun respublika miqyosida ommalashmoqda.

Kutubxona sohasida faoliyat yuritayotganligim tufayli shuni alohida ta'kidlamoqchimanki, o'zim ham talabalik davrimda va ish faoliyatimda kutubxona orqali ilk tadqiqot ishlarimni amalga oshirganman. Kitobxonlik meni nafaqat ilmga, balki nutq madaniyati, mantiqiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilishga ham o'rgatdi. Har bir yoshga o'quv jarayonida doimiy kutubxona bilan aloqada bo'lishi tavsiya etiladi.

Yoshlar va telefon: raqamlı asrda kitobning qadriga yetish haqida

Bugungi kunda texnologik taraqqiyot yosh avlodga ko'plab imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Biroq bu imkoniyatlar orasida eng xavflisi – cheksiz ekran oldida vaqt o'tkazish odatidir. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, o'smir yoshdag'i

farzandlar kuniga o'rtacha 5-6 soatini mobil telefon, planshet yoki kompyuter oldida o'tkazmoqda. Bu vaqt ichida ular bilim emas, balki ko'pincha sarf-xarajatli va maqsadsiz kontentni iste'mol qilmoqda. Bu esa diqqatning susayishi, tafakkur faolligining pasayishi, ijodiy salohiyatning so'nishiga olib kelmoqda.

Telefon bolalarning o'yinchoqlarini, muloqotini, hatto orzusini ham egallab bormoqda. Ammo hayot shuni isbotlayaptiki, haqiqiy tafakkur, mustahkam bilim va ijodkorlik faqat kitob orqali shakllanadi.

Kitobni telefondan ustun qo'yish uchun nima qilish kerak?

1. Oilaviy o'qish muhitini yaratish

Farzand kitobni sevishidan avval, ota-onaning bu boradagi odatlarini ko'radi. Shuning uchun har bir oilada "birga o'qish soati" joriy etilishi lozim. Har kuni kechqurun 30 daqiqa davomida butun oila a'zolari telefonlarni chetga surib, kitob o'qishni odat qilsa, bu bolada hayotiy odat sifatida shakllanadi.

2. Kutubxonani yoshlar uchun jozibador qilish

Zamonaviy kutubxonalar yoshlar uchun "jim joy" emas, balki ijodiy muhit, interfaol o'yinlar, besh daqiqa kitob aytish musobaqalari, audio-kitob tinglash maskanlari, kitob bo'yicha teatr sahnalari singari uslublar bilan boyitilishi kerak. Bu orqali kutubxona – sevimli joyga aylanadi.

3. Telefonni raqib emas, vosita sifatida ishlatalish

Yoshlar doim telefonda bo'lsa, nega aynan telefonda kitob o'qish ilovalarini ommalashtirmaylik? "Asaxiy Books", "Kutubxona.uz", "Litres", "ZLibrary" kabi platformalarning afzalliklarini tushuntirib, ulardan foydalanishni o'rgatish orqali o'smirlar o'qishni ekranda ham davom ettiradi. Lekin bu vaqt maqsadli va nazoratli bo'lishi lozim.

4. Ta'lrim muassasalarida musobaqa va loyihalarni ko'paytirish

"Bir oy – o'n kitob" tanlovi;

"Mening o'qigan kitobim" insholari;

"Kitobxonlar elchisi" loyihasi;

"Telefonimni bir kun kitobga almashtiraman" aksiyasi.

Bu kabi faoliyatlar orqali bolalar kitobni zavq bilan o'qishni o'rganadilar.

5. Yoshlar bilan yuzma-yuz muloqotda bo'lish

Har qanday texnologiya jonli so'z, samimiy suhbat, ustoz va ota-onaning mehrini almashtira olmaydi. Kitobning ruhiyatga qiladigan ta'siri – insoniylikning ildizlarigacha yetib boradi. Shuning uchun yoshlarga kitobni faqat o'qitish emas, uni his qilishni o'rgatish kerak.

Bugun telefon vaqtimizni olmoqda, ertaga esa tafakkurimizni egallaydi. Ammo kitob – vaqt bermaydi, u hayot beradi. Shunday ekan, har bir ota-ona,

ustoz, jamiyat a'zosi birgalikda harakat qilib, yosh avlodga kitobni sevdira olsa – biz haqiqiy ma'naviy tiklanish sari qadam bosgan bo'lamiz.

Ota-onalarning beparvoligi – kelajakni savodsizlikka boshlaydi

Bugungi kunda afsuski, farzand tarbiyasiga beparvo qarayotgan ota-onalar soni ortib bormoqda. Ayniqsa, kitob o'qish, bilim olish va ma'naviy yuksalishga undash borasida ko'plab ota-onalar loqaydlik bilan qaramoqda. Farzandi kun bo'yи telefonda qanday kontent ko'rayotgani, kimlar bilan muloqot qilayotgani, vaqtı qanday o'tayotgani ularni unchalik qiziqtirmaydi. Aksincha, "Telefonni qo'ygin, lekin nima qilayotganing meni qiziqtirmaydi" degan yondashuv kundalik hayotga aylanib ulgurgan. Kitob o'qish haqida so'z ochilsa, "Uzi o'qimaydi-ku, majburlab bo'lmaydi" deya o'zini oqlashga urinishlar esa farzandga berilayotgan yolg'on ozodlikdir.

Ayni vaqtida, Yevropa, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda bolalikdan kitob o'qish – oilaviy qadriyat sifatida shakllangan. Bu oilalarda farzandga ilk o'yinchoq emas, ilk kitob sovg'a qilinadi. Har kuni kechqurun bolaga ertak o'qib berish – ota-onaning asosiy burchi sanaladi. Ular farzandining intellektual rivojlanishini jiddiy kuzatadi, har bir kitob tanlovini muhokama qiladi. Natijada, bu jamiyatlarda yoshlarda mustaqil fikrlash, savol berish, izlanish va bilimga chanqoqlik kuchli bo'ladi.

Biroq O'zbekiston oilalarida, ayniqsa ayrim hududlarda, kitob faqat sinf uchun, imtihon uchun o'qiladigan buyum sifatida qaraladi. Farzand kitob o'qimasa, bu ko'pincha ota-onaning o'zida ham kitobxonlik odati yo'qligidan dalolat beradi. Kitob o'qimagan ota-onadan – o'qimishli avlod kutish – afsuski, behuda orzudek tuyuladi.

Shunday ekan, kitobxonlikni yoshlar orasida targ'ib qilishdan avval, uni oilada jonlantirish, ota-onani ham tarbiyalash, ularga ham kitobning ta'siri va zarurati haqida tizimli tushuntirish ishlari olib borilishi zarur. Chunki farzand eng avvalo ko'radi – keyin eshitadi, keyin takrorlaydi. U ko'rgan narsani qilmay qo'ya olmaydi – ota-onasi kitobga mehr qo'ysa, u ham bunday mehrni yuragiga singdiradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda axborot-kutubxona tizimini zamonaviylashtirish bo'yicha izchil islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi va uning hududiy filiallari faoliyati yangicha asosda yo'lga qo'yilgan. Ushbu markazlarda:

- Raqamli kutubxona fondlari shakllantirilmoqda. Masalan, minglab kitob va ilmiy maqolalar PDF, ePub, MP3 kabi formatlarda ommaga taqdim etilmoqda;

- Elektron katalog tizimi orqalik kitoblar qidiruvi soddalashtirilgan va onlayn buyurtma berish imkoniyati yaratilgan;
- QR-kodlar orqali tezkor kirish imkoniyati joriy etilgan, bu esa foydalanuvchilarning zamonaviy texnologiyalarga moslashganligini ko'rsatadi;
- Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun maxsus xizmatlar yo'lga qo'yilgan: ovozli kitoblar, maxsus braille yozuvi bilan kitoblar fondi kengaytirilmoqda;
- Multimedia xonalar, konferensiya zallari va ijodiy uchrashuvlar uchun joylar tashkil etilgan.

Masalan, "Axborot-kutubxona markazlari haftaligi", "Mobil kutubxona xizmatlari", "Ochiq kutubxona kuni" kabi loyihalar aholining turli qatlamlarini kitobxonlikka jalg qilishda samarali natijalar bermoqda. Farg'ona, Samarqand, Andijon va boshqa viloyatlardagi AKMlar (axborot-kutubxona markazlari) bugun nafaqat bilim maskani, balki ko'ngilochar-ma'naviy markaz sifatida ham faoliyat yuritmoqda.

Keyingi o'n yillikda boshqa sohalar qatori, kutubxonachilik sohasidaham ilg'or ishlar amalga oshirildi. Jumladan, sohaga jiddiy e'tibor qaratilib yangi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, qaror va farmonlar, axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilindi.

Ushbu hujjatlar asosida axborot-kutubxona muassasalari foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish ishlarini olib bormoqda. Shu bilan birgalikda, axborot-kutubxona muassasalari zamon talablari asosida axborot texnologiyalari bilan ta'minlandi, mavjud bosma nashrlarning elektron variantlari shakllantirilib, aholiga tez va sifatli xizmat ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yildi.

Mening o'zim faoliyat yuritadigan Xonqa tuman Axborot-kutubxona markazida ham kelajakda amalga oshirishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab olgan. Ayniqsa, yoshlarga kerakli adabiyotlar bilan birgalikda, aholining talab va ehtiyojlari asosida axborot-kutubxona fondini gazeta va jurnallar, badiiy adabiyotlar bilan boyitlmoqda.

Axborot kutubxona markazining kitob fondi 282841 nusxadan iborat. Foydalanuvchilarning soni 15 120 nafardan ortiq bo'lib, hozirgi kunda a'zolikka qabul davom etmoqda.

Kitobxonlarning zamon talablari darajasida bilim olishlari uchun Axborot-kutubxona markazida 30 o'ringa mo'ljallangan o'quv zali hamda elektron texnologiyalar bo'limi zamonaviy kompyuter, skaner va printerlar bilan jihozlangan. Kompyuterlar internet tarmog'iga ulangan bo'lib, kitobxonlar bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazib, o'zlariga kerakli ma'lumot va qiziqarli kitoblardan foya- lanishmoqda.

Xonqa tuman Axborot kutubxona markazida an'anaviy kutubxona hizmati bilan birgalikda ijtimoiy tarmoqlar orqali onlayn kutubxona hizmati ham tashkil etilgan.

Axborot kutubxona yoshlarning bilim egallashlariga, aholining kitobxonlik madaniyatini yanada yuksaltirishga harakat qilmoqda. Buning uchun tuman hokimligi, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, mahalla fuqarolar yig'inlari bilan hamkorlikda adabiy-badiiy tadbirlar, turli xil mavzularda ko'rik-tanlovlar o'tkazib kelinmoqda.

Shu bilan birgalikda, aholining axborot kutubxona markazidan foydalanishida qulaylik yaratish uchun mahalla fuqarolar yig'inlarida 8 ta ko'chma kutubxonalar tashkil etildi. Idora tashkilotlarda faoliyat yurituvchi xodimlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun idora tashkilotlarda ham ko'chma kutubxonalar tashkil etilmoqda. Bunga yaqool misol Xonqa tuman Ichki ishlar bo'limi, qariyalar uyi, Vatanpar tashkilotlarida ko'chma kuyubxona tashkil etildi.

Shuningdek, yolg'iz qariyalarga, imkoniyati cheklangan fuqarolarga ham "Mehr kutubxonasi" loyihasi doirasida ko'chma kutubxona xizmati ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Kitobxonlarimiz o'rtasida «Eng faol kitobxon», «Eng kitobxon oila», «Eng kitobxon mahalla» ko'rik-tanlovlarini o'tkazib bormoqdamiz.

Bugungi axborot-kutubxona markazlarida xizmat ko'rsatishning quyidagi shakllari yo'lga qo'yilgan:

- An'anaviy xizmatlar: O'quv zallari, kitob berish bo'limlari, referativ axborotlar;
- Elektron xizmatlar: Onlayn ro'yxatdan o'tish, masofaviy kutubxona xizmatlari, elektron pochtaga maqolalar va tavsiyalar yuborish;
- Interaktiv xizmatlar: "Kitob tavsiya etaman", "Kitobxon fikri", "O'qiganim haqida gapirib beraman" kabi rubrikalar;
- Ijtimoiy xizmatlar: Kutubxona ichida tashkil etilgan "psixologik maslahat", "kasb tanlash bo'yicha tavsiya" kabi alohida burchaklar;
- Mobil kutubxona xizmatlari: Aholi yashash punktlariga sayyor kutubxona mashinalari orqali xizmat ko'rsatish.

Shuningdek, barcha viloyatlarda yoshlar uchun kitob klublari, she'riyat oqshomlari, intellektual o'yinlar, muallif bilan uchrashuvlar kabi doimiy dasturlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu holat yoshlarning faol ishtirokini ta'minlamoqda.

Yurtimizda kitobxonlikni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar e'tiborga molik bo'lsa-da, ushbu sohani yanada takomillashtirish uchun quyidagi yo'naliislarda ishlarni kuchaytirish zarur:

1. Kutubxona marketingi va PR tizimini rivojlantirish: Har bir kutubxona o'zining faoliyatini ijtimoiy tarmoqlar va media orqali targ'ib qilishi kerak. Ijtimoiy

tarmoqlarda faol kontentlar: "O'qish tavsiyasi", "Kitob va hayotim" kabi ko'rsatuvar orqali ommani jalb qilish lozim.

2. Bolalar va yoshlar uchun alohida kutubxona zonalari yaratish: Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, bolalar uchun interfaol o'yin maydonchalari, audio kitoblar zonasi, animatsion kitoblar fondi yaratilishi zarur.

3. O'zbek va jahon adabiyotini ommalashtirish: Mashhur adiblar asarlarini turli yoshdagi kitobxonlar uchun moslab nashr qilish (komikslar, qisqartirilgan versiyalar, audiokitoblar).

4. Dasturchilar bilan hamkorlikda kutubxona ilovalarini ishlab chiqish: Mobil ilovalar orqali kitoblarni onlayn o'qish, eshitish va reyting berish imkoniyati.

5. O'qituvchilar va kutubxonachilar malakasini oshirish: Zamonaviy metodikalarga asoslangan treninglar, seminarlar va tanlovlardan tashkil etish.

6. Har bir hududda "Mahalla kutubxonasi" loyihasini amalga oshirish: Mahallalarda kichik kutubxonalar tashkil etilib, aholi uchun 24/7 ochiq xizmat qiladigan o'quv zonalari yaratilishi lozim.

7. Aloida rag'batlantirish tizimi: Faol kitobxonlarni taqdirlash, sertifikat berish, chet elga ilmiy safarlar uchun tavsiyanomalar ajratish orqali yoshlar kitobxonlikka rag'batlantiriladi.

#### Xulosa:

Yuqorida keltirilgan dalil va tavsiyalar shuni ko'rsatadiki, kutubxonalar yoshlar uchun faqat o'quv maskani emas, balki ma'nnaviy o'sish, muloqot, ilmiy izlanish va ijodiy rivojlanish makoni bo'lishi kerak. Kitobning o'rnini hech bir texnologiya bosib o'tolmaydi, ammo zamonaviy texnologiyalar orqali kitobga yetkazish yo'llarini innovatsion shakllarda taklif qilish mumkin. Shunday ekan, kelajak avlodni ma'nnaviy barkamol etib tarbiyalash uchun kutubxonalar va kitobxonlik madaniyatini har bir maktab, mahalla va oilada mustahkamlash lozim.

"Ma'rifatni suygan el – hech qachon johillik changalida qolmaydi."

"Kitob o'qigan yurakda jaholat ildiz otolmaydi."

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Milliy kutubxonasi statistik hisobotlari, 2023.
2. "Kitob - ma'nnaviyat mezoni" risolasi, Ma'nnaviyat nashriyoti, Toshkent, 2021.
3. Kutubxonachilikni rivojlantirish bo'yicha hukumat qarorlari, [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz) – O'zbekiston elektron kutubxonasi portalı.

5. "Yoshlar va kitobxonlik" – Respublika ilmiy-tadqiqot loyihalari to'plami, 2022.
6. Muallifning shaxsiy tajribasi va kuzatuv natijalari.